

## TARIX FANINIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH USULLARI

**Kurbanova Saboxat Abduraxman qizi**


Sirdaryo vil Guliston tumani

13- maktab Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Maqolada taxir fanini o'quvchilarga yetkazib berishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan..*

**Kalit so'zlar:** *Taxix, pedogogik texnologiyalar, falsafiy konsepsiya, zamonaviy yondashuv.*


"Pedagogik texnologiya" tushunchasi o'qitish nazariyasida keying paytlarda yanada kengroq tarqaldi. XX asrning 20-yillarida "pedagogik texnologiya" temini birinchi bor pedagogika bo'yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o'zida yana bir boshqa –"pedagogik texnika" termini ham tarqaldi. Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalariga o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ishlash, ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanishlar mahoratlari ham kiritilgan. O'tgan asrning 40-50-yillarida, o'qitish - o'quv jarayonlarisha texnik vositalarni tatbiq etish boshlanganida, "ta'lim texnologiyasi" termini paydo bo'ldi, u keyingi yillar davomida "pedagogik texnologiyaga" aylantirildi. 60-yillar o'rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferentsiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSh, Angliya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Vengriya) va darajasiga qarab uni talqin qilish ikki yo'nalishi belgilandi. Birinchi yo'nalish



tarafdorlari texnik vositalar va dasturlashtirilgan o`qitish vositalarini qo`llash zarurligini ta'kidladilar .

Tarix fanini o`qitishda qo`llaniladigan texnologiyaning falsafiy asoslari. O`quv yurti, ijtimoiy institut sifatida butun jamiyatning holatini aks ettiradi. U siyosatdan alohida, g`oyalardan alohida yashay olmaydi, hech qanday falsafani targ`ib qilmay yashay olmaydi. Shunday qilib tarix fanini o`qitish texnologiyasi ma'lum falsafiy poydevorga asoslanadi. Falsafiy konsepsiyalar tarix o`qitishning innovatsion texnologiyalarini metodologik ta'minlash tarkibiga kiruvchi eng umumiy tartibga soluvchi sifatida ishtirok etadi. Falsafiy asosi ta'limning yakuniy maqsadida ancha aniq ko`rinadi (misol uchun, tarixiy, e`tiqod, texnokratik, insonparvarlik pedagogik va shu kabi). Falsafiy nuqtai nazarlar ta'lim mazmunida, tarix fani mazmunida ancha aniq kuzatiladi. Ammo ko`pincha ularning g`oyaviylik yo`nalishlarida birlik bo`lmaydi, yagona umumiy falsafiy asoslar yo`q. O`zbekiston Respublikasida zamonaviy ta'lim mazmuni ana shunday xususiyatlar bilan farq qiladi. Ta'limning metodlari va vositalarida falsafiy asoslarni aniqlash qiyinroq. Bir xil metodlar g`oyalari bo`yicha umuman qarama-qarshi texnologiyalarda qo`llanilishi mumkin. Shuning uchun bir texnologiya u yoki bu falsafiy asosga moslanishi mumkin (misol uchun: o`yin).

Zamonaviy jamiyatshunoslik fanlarida u yoki bu darajada ta'lim jarayonida mavjud bo`lgan tarixiy-falsafiy yo`nalishlar, maktab, oqimlar ko`p turlari mavjud. Tarix o`qitishning innovatsion texnologiyalari konsepsiyalarida eng aniq ko`rinadigan bir necha bir-biriga mos falsafiy asoslarni ajratib ko`rsatamiz: materializm va idealizm, dialektika va metafizika skeptizm va tabiiy muvofiqlik, insonparvarlik va antiinsonparvarlik, antroposofiya va teosofiya, pragmatizm va ekzistentsializm. Pedagogik texnologiya–tushunchasi ta'lim amaliyotida uchta tartib bilan bir-biriga bog`liq darajalarda ishlatiladi. Umumpedagogik




(umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta'limning ma'lum bosqichida ushbu region, o`quv yurtida yaxlit ta'lim jarayonini ifoda etadi. Bu yerda pedagogik texnologiya pedagogik tizimga o`xshashdir: unga o`qitishning maqsadlari, mazmuni, vosita va metodlari to`plami, faoliyat ob'ekti va sub'ekti algoritmi kiradi. Tarix fanining metodik darajasi: Tarix fanining metodik darajasi "tarix faning metodik" ko`rinishida qo`llaniladi, ya'ni tarix fani bo'yicha, tarix o`qituvchisi doirasida o`qitish va tarbiyalash ma'lum mazmunini amalga oshirish uchun metodlar va vositalar to`plami sifatida ishlatiladi. Lokal (modulli) darajasi: lokal texnologiya o`quv-tarbiyaviy jarayonning alohida qismlari, xususiyl didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal etish texnologiyasidan iborat (alohida turdagi faoliyat, tushunchalar shakllantirish, alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash, dars texnologiyasi, materiallarni takrorlash va tekshirish texnologiyasi, mustaqil ishlar texnologiyasi va boshqalar). Bundan tashqari texnologik mikrostrukturalarni ham ko`rsatdilar: usullar, qismlar, elementlar va boshqalar. Tarix o`qitishning texnologik xaritasi – bu tarix fanini o`qitishda qadamma-qadam, bosqichma-bosqich harakatlar ketma-ketligi ko`rinishida (ko`pincha grafik shaklda) qo`llaniladigan vositalarni ko`rsatib jarayonni tasvirlash. Texnologiyalar va metodikalarning aralashtirib yuborilishi ba'zan metodika texnologiya tarkibiga kirishiga, ba'zan esa aksincha, u yoki bu texnologiyalar - o`qitish metodikasi tarkibiga kirishiga olib keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.Muslimov va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. "Sano-standart" bosmaxonasi. 2015. 10-11 betlar. 157-bet
2. O'quv jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'lash yo'llari. - T.: TDIU, 2005. 60-bet.

# ILM – FAN TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR, TAKLIF VA YECHIMLAR



3. Курбонова М. Ф. Ёшларда креатив тафаккурни шакллантиришнинг педагогик асослари //Халқ таълими. - 2020. - Т. 3.